



AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Issue 11 | pp. 552-556 | ISSN: 2181-1865

Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

TOVAR VA XIZMATLARGA QQS SOLISHNING AMALDAGI HOLATINI TAHLILI

ERGASHEV ILXOMJON OBODOVICH

Toshkent Davlat Iqtisodiyot universiteti dekan muovini,

iqtisod fanlari nomzodi,

ilxomjonegashev849@gmail.com¹



Annotatsiya Maqolada O'zbekistonda QQS (qo'shilgan qiymat solig'i)ning amaldagi holatini o'rganish, iqtisodiyotni ta'minlash va barqarorlashtirish uchun xorij tajribasini o'rganish, tizimni isloh qilish bo'yicha tavsiyalar berish. QQS solish tizimi, QQSning afzallik va kamchilik, tizimni isloh qilish uchun ilmiy va amaliy takliflarni ishlab chiqish. Mavjud tadqiqotlarni o'rganish va ular yordamida QQS solig'i ma'murchiligini rivojlantirish orqali davlat byudjetiga tushumni oshirish va QQSning yukini tushirish orqali biznesini yaxshilash, ichik hamda o'rta biznesni rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar berilgan.

Kalit so'zlar: QQS, QQS zanjiri, fiskal siyosat, daromad, xarajat, budjet siyosat, soliq siyosati, tahliliy amallar, raqamli soliqlar

АНАЛИЗ ТЕКУЩЕГО СОСТОЯНИЯ НДС НА ТОВАРЫ И УСЛУГИ

ЭРГАШЕВ ИЛХОМЖОН ОБODOVИЧ

Ташкентского государственного экономического университета,

Заместитель декана кандидат экономических наук,

ilxomjonegashev849@gmail.com¹,

Annotatsiya. В статье исследуется текущее состояние НДС (налога на добавленную стоимость) в Узбекистане, изучается зарубежный опыт обеспечения и стабилизации экономики, даются рекомендации по реформированию системы. Система НДС, Преимущества и недостатки НДС, 3. Разработка научно-практических предложений по реформированию системы. Даны предложения и рекомендации по улучшению бизнеса, развитию питьевого и среднего бизнеса путем изучения имеющихся исследований и использования их для увеличения поступлений в государственный бюджет и снижения его бремени за счет развития налогового администрирования НДС.

Ключевые слова: НДС, цепочка НДС, Фискальная политика, доходы, расходы, бюджетная политика, налоговая политика, аналитические операции, цифровые налоги

ANALYSIS OF THE CURRENT STATE OF VAT ON GOODS AND SERVICES

ERGASHEV ILKHOMJON OBODOVICH

*Tashkent State University of Economics of Deputy dean candidate of Economic Sciences,
ilxomjonegashev849@gmail.com¹,*

Abstract. In the article, to study the current state of VAT (value added tax) in Uzbekistan, to study the experience of ujuhn abroad in the provision and stabilization of the economy, to make recommendations for reforming the system. VAT collection system, Preference and deficit of VAT, Development of scientific and practical proposals for reforming the system. Proposals and recommendations were made to improve its business, to develop ichik and medium-sized businesses by examining the existing research and developing VAT tax revenue with them and reducing its burden on the state budget.

Keywords: VAT, VAT chain, fiscal policy, Income, Expenditure, Budget Policy, Tax Policy, analytical operations, digital taxes

KIRISH

Bugungi kunda qo'shilgan qiymat solig'i (QQS) ko'pgina mamlakatlar iqtisodiyoti uchun muhim vosita bo'lib, davlat byudjetining asosiy daromad manbalaridan biri sifatida xizmat qiladi. QQS solig'i iste'mol bosqichida to'lanuvchi universal soliq turi bo'lib, unda mahsulot yoki xizmatning qo'shilgan qiymatiga qarab soliq to'lanadi.

O'zbekiston iqtisodiy o'sish jarayonida QQS yanada soddalashtirish va uning ma'murchiligini soddalashtirishga qator chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda. Ammo, QQSning amaldagi tizimida bir qancha muammolar, norasmiy iqtisodiyotning yuqori darajasi, kichik biznesni soliqqa tortishdagi murakkabliklar va QQSning regressiv ta'siri kuzatilmoqda. bu mavzuning dolzarbligi va tahlil qilish hamda xalqaro tajribaga takliflarni ishlab chiqish kerakligini bildiradi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tovar va xizmatlarga QQS solish bo'yicha bir qancha milliy va xalqaro adabiyotlar o'zganildi, jumladan:

Keen (2009) o'quv tadqiqotida QQSning iqtisodiy o'rganishga ta'siri va uni joriy etish strategiyalari rivojlanishi o'rganilgan.¹

Tanzi va Zee (2001) ishida QQSning davlat byudjeti daromadlariga ta'siri va iqtisodiy holati o'rganilgan.²

O'zbekistondagi iqtisodchi olimlar tomonidan yoritilgan QQS muammolar va uni yig'ish jarayonini soddalashtirishdagi muammolar va takliflar ko'rib chiqildi.

Jahon banking 2021-yilgi hisobotida rivojlanayotgan davlatlarda QQSning daromadlariga nisbatan regressiv ta'siri o'rganilgan.

Davlat soliq qo'mitasi statistika ma'lumotlaridan, O'zbekistonda QQSning iqtisodiy segmentlari bo'yicha yig'ilish ko'rsatkichlari o'rganilgan.

METODOLOGIYA


Mavzuni yoritishda quyidagi metod va usullari qo'llanildi:

¹ chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2009/wp09157.pdf

² <https://cyberleninka.ru/article/n/adjusting-tax-policy-to-the-challenges-of-digitalization-inequalityand-technological-unemployment/viewer>

Statistik tahlil : davlat soliq qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlar asosida QQS yig‘ilish ko‘rsatkichlari o‘rganildi. **Taqqoslash usuli :** QQS solig‘i solishning boshqa soliqlar bilan solishtirildi. **Ekspert so‘rovlari:** soliq tizimi tekshiruvidan intervyular olindi. **Regressiya modeli:** QQSning iqtisodiy o‘rishga ta‘siri o‘rganildi.

TAHLIL VA TAHLIL NATIJALARI



1-rasm. O‘zbekistondagi sohalar bo‘yicha QQS yig‘ilishi darajasi (2023³)

1-jadval

Xorij tajribasi tahlili⁴

No	Davlat	QQS stavkasi %	Imtiyozli stavkalar mavjudligi
1.	O‘zbekiston	12	Yo‘q
2.	Germaniya	19	Bor
3.	Fransiya	20	Bor
4.	Qozog‘iston	12	Yo‘q
5.	Rossiya	20	Bor

2-jadval

Xorijiy davlatlar norasmiy iqtisodiyot darajasi (%)⁵

No	Davlat	Norasmiy darajasi (%)
3	O‘zbekiston	35
2.	Germaniya	10
3.	Fransiya	12
4.	Qozog‘iston	25

³ 2023-yilgi ko‘rsatkichlarochiq manbalardan olinib muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.

⁴ Xorij tajribasi ochiq manbalardan olinib muallif tomonidan tayyorlandi.

⁵ Davlatlarning ochiq manbalardagi ma‘lumotlari o‘rganilib muallif tomonidan mustaqil tayyorlandi.

5.	Rossiya	23
----	---------	----

Grafik tahlil :

Sanoat sektori O'zbekistonda QQS yig'ilishida eng katta ulushni (60%) tashkil qiladi. Bunda hujjatlashtirish yuqori bo'lib, soliq yig'ilish sohaga yordam beradi⁶.

Xizmatlar ulushi 30% bo'lib, bu sektorda norasmiy iqtisodiyot sohasining yuqori darajasi ko'rinishida⁷.

Jadval tahlili (xalqaro solishtirish):

Germaniya va Fransiyada imtiyozli stavkalar joriy qilingan bu esa QQS solig'ining regressiv ta'sirini oshiradi.

Qozog'iston va Rossiya kabi davlatlarda norasmiy iqtisodiyotning yuqori darajasi QQS yig'ilishni pasaytirgan.

Tahlillar asosida tavsiyalar:

Norasmiy iqtisodiyotga qarshi kurashish uchun hujjatlashtirishni elektorn qilish zarur va boshqa tizimlar bilan integratsiya ishlarini amalga oshirish kerak.

Iste'mol tovarlari uchun imtiyozli QQS stavkalarini ko'rib chiqish aholining past daromadli qatlamlari uchun foyda beradi.

MUAMMO VA TAKLIFLAR

QQS tizimidagi mavjud muammolar

1. Ba'zi hollarda QQS bo'yicha hujjatlashtirishning noto'g'ri olib borilishi yoki soxta hisob-fakturalar tuzish holatlari uchraydi;
2. QQSdan ozod qilish yoki imtiyozli stavkalarni qo'llashda murakkablik yuzaga keladi. Bu, ayniqsa, kichik va o'rta biznes uchun qo'shimcha byurokratik to'siqlar yaratadi;
3. QQSni samarali boshqarish uchun elektron hisob-kitob tizimi va naqd pulsiz operatsiyalarni kengroq joriy etish zarur, ammo ushbu jarayon hali to'liq shakllanmagan;
4. Iqtisodiyotning ayrim tarmoqlari yoki ma'lum turdagi xizmatlar uchun QQS stavkalarining o'ziga xos xususiyatlari sababli soliq yukining notekis taqsimlanishi kuzatiladi.

Muammolarni hal etish bo'yicha takliflar

1. Soliq hisobotlarini avtomatlashtirish va soxta hisob-fakturalarni aniqlash uchun raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur.
2. QQS bo'yicha imtiyozlarni qayta ko'rib chiqish, ularni yanada aniq va maqsadga muvofiq qilish lozim. Bu byudjetga qo'shimcha daromad keltirishi va soliq tizimining shaffofligini oshiradi.
3. Savdo va xizmat ko'rsatish sohasida naqd pulsiz to'lovlarni kengaytirish uchun moliyaviy rag'batlantirish choralarini qo'llash kerak.

⁶ chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2009/wp09157.pdf

⁷ chrome-extension://efaidnbmnnnibpcajpcglclefindmkaj/https://www.imf.org/external/pubs/ft/wp/2009/wp09157.pdf

4. QQS bo'yicha yig'ilgan ma'lumotlarni tahlil qilish va ochiq statistikasi muntazam e'lon qilib borish orqali ishonchni oshirish mumkin.

XULOSA

QQS tizimi O'zbekiston iqtisodiyotining muhim qismi sifatida keng ko'lamli islohotlarni talab qiladi. Mavjud muammolarni bartaraf etish orqali davlat byudjetiga tushumlarni oshirish, biznes uchun qulay shart-sharoitlarni yaratish va soliq tizimini shaffoflashtirishga erishish mumkin. Ushbu takliflarning amalga oshirilishi iqtisodiyotning barqaror rivojlanishiga xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.

- [1]. Soliq kodeksi 2020y
- [2]. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.08.2020 yildagi 489-sonli

INTERNET MANBALARI

- [1]. <https://stat.uz/uz/>
- [2]. <https://soliq.uz/>
- [3]. [The Use and Possibilities of Modern Technologies in Strengthening the Control System of Indirect Taxes | American Journal of Political Science and Leadership Studies](#)
- [4]. <https://finance.tsue.uz/index.php/afa/article/view/720>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

